



**JOURNAL OF  
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

**THE PEDAGOGICAL SYSTEM OF KONSTANTIN DMITRIYEVICH  
USHINSKY**

Students of Termez State Pedagogical Institute

**Ernazarova Hojiniso Abdukarim Qizi**

[hojinisoernazarova45@gmail.com](mailto:hojinisoernazarova45@gmail.com)

**Abdurahmonov Azamat Abdukamolovich**

[azamatabdurahmonov586@gmail.com](mailto:azamatabdurahmonov586@gmail.com)

**Abstract:** This article analyzes the pedagogical views of K.D. Ushinsky and highlights his emphasis on humanitarian principles in the process of upbringing and education. Proposing the principles of respect for the human personality, kindness, equality, and justice, Ushinsky advocated for conducting the educational process in a person-centered manner. His views remain significant in modern pedagogy and align with the concept of student-centered learning.

**Keywords:** K.D. Ushinsky, pedagogy, upbringing, education, humanitarianism, person-centered education, principles.

**KONSTANTIN DMITRIYEVICH USHINSKIYNING PEDAGOGIK TIZIMI  
TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI TALABALARI**

**Ernazarova Hojiniso Abdukarim Qizi**

[hojinisoernazarova45@gmail.com](mailto:hojinisoernazarova45@gmail.com)

**Abdurahmonov Azamat Abdukamolovich**

[azamatabdurahmonov586@gmail.com](mailto:azamatabdurahmonov586@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada K.D.Ushinskiyning pedagogik qarashlari tahlil qilinib, uning tarbiya va ta'lim jarayonida insonparvarlik tamoyillariga e'tibori ochib beriladi. Ushinskiy inson shaxsiga hurmat, mehr-muruvvat, tenglik, adolat tamoyillarini ilgari surgan holda, o'quv-tarbiya jarayonini shaxsiga yo'naltirilgan tarzda olib borishni targ'ib qilgan. Uning qarashlari zamonaviy pedagogikada ahamiyatli bo'lib, insonga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasiga mos keladi.





**JOURNAL OF  
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

**Kalit soʻzlar:** K.D.Ushinskiy, pedagogika, tarbiya, taʼlim, insonparvarlik, shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim, tamoyillar

Bizga maʼlumki, jamiyaning barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazish va uni maʼlum bir kasbga yoʻnaltirish uchun mashaqqatli va ogʻir mehnat evaziga amalga oshiriladi. Bu mashaqqatli mehnat uzluksiz taʼlim va tarbiyaviy faoliyatning yigʻindisidir.

Tarbiyachi yosh avlodni xalqimiz uchun munosib farzandlar qilib tarbiyalash muhim va fahrlidir. Shu bilan birga maʼsuliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining har tamonlama yetukligi bolalarning tarbiyalash uchun xalq va jamiyat oldidagi oʻz maʼsuliyatini tushunishga, taʼlim - tarbiya ishlariga ijodiy yondoshishga oʻz mahoratini doimo faollashtirib borish va hamkasblarning ishdagi oʻsishga koʻmaklashuviga yordam beradi.

Konstantin Dmitriyevich Ushinskiy (1824-1870) taʼlim sohasida insonparvarlik gʻoyalarini rivojlantirishda muhim rol oʻynagan. K.D.Ushinskiy, rus pedagogi va taʼlim nazariyotchisi sifatida, insonparvarlik tamoyillarini taʼlim va tarbiya jarayonlariga qoʻllashning muhimligini taʼkidlagan. Uning qarashlari asosan oʻquvchilarning shaxsiy rivojlanishiga va ularning maʼnaviy va madaniy jihatdan yetuk insonlar boʻlib voyaga yetishiga eʼtibor qaratgan. Uning asarlari taʼlim tizimiga chuqur taʼsir koʻrsatgan va hozirgi kunda ham oʻqituvchilar va tarbiyachilar uchun muhim manba hisoblanadi. Ushinsky oʻzining pedagogik faoliyati davomida taʼlim jarayonida insoniy qadriyatlarni qoʻllab-quvvatlash va rivojlantirish zarurligini urgʻu bergan.

K.D.Ushinskyning insonparvarlik tamoyillari asosan quyidagi asosiy gʻoyalarga tayanadi:

1. Har bir insonning shaxsiy qadr-qimmati: Ushinsky taʼlim jarayonini shaxsning oʻzini-oʻzi rivojlantirish imkoniyati sifatida koʻrgan. U oʻquvchilarning har biri noyob va qadrlı ekanligini taʼkidlagan va ularning shaxsiy ehtiyojlarini qondirishga alohida eʼtibor berish zarurligini urgʻulagan.





**JOURNAL OF  
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

2. Ta'limning ma'naviy asoslari: Ushinsky ta'limni faqatgina bilim olish jarayoni emas, balki yuksak ma'naviyat va axloqiy qadriyatlarni shakllantirish vositasi sifatida qaragan. U o'quvchilarni vatanparvarlik, mehr-oqibat va o'zaro hurmat ruhida tarbiyalashga intilgan.

3. Ta'limda demokratik yondashuvlar: Ushinsky o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muloqotni demokratik tarzda qurishni targ'ib qilgan. U o'qituvchilarga o'quvchilar fikrini hurmat qilishni va ularning shaxsiy rivojlanishlariga ko'maklashishni maslahat bergan.

Ta'lim va tarbiyada qo'llaniladigan usullarda K.D.Ushinsky o'zining pedagogik faoliyati davomida quyidagi usullarni qo'llagan:

- Ta'lim mazmunining boyitilishi: U ta'lim mazmunini o'quvchilarning turli qiziqishlarini qondiradigan darajada boy va xilma-xil qilishga harakat qilgan.

- Interfaol o'qitish usullari: Ta'lim jarayonida suhbatlar, muhokamalar va amaliy mashg'ulotlar kabi interfaol usullarni joriy etish orqali o'quvchilarning faol ishtirokini rag'batlantirgan.

- Shaxsiy yondashuv: Har bir o'quvchining individual xususiyatlarini inobatga olish, ularning shaxsiy ehtiyojlariga moslashuvchan yondashuvlar qo'llash. Konstantin Ushinskyning pedagogik qarashlari zamonaviy ta'lim va tarbiya jarayonlarida ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Uning insonparvarlik tamoyillari bugungi kunda ham o'qituvchilar va tarbiyachilar uchun muhim yo'riqnoma bo'lib xizmat qiladi. Ushinsky ta'limni faqatgina bilim berish jarayoni sifatida emas, balki shaxsning to'liq rivojlanishi uchun zarur sharoit yaratish vositasi sifatida qaragan. Ushinskyning pedagogik qarashlarini tahlil qilish orqali uning insonparvarlik tamoyillarining ahamiyatini ta'kidlaydi va zamonaviy ta'lim muassasalarida bu tamoyillarni qo'llashning afzalliklarini ko'rsatib beradi. Uning fikricha, pedagog bolaning yuragiga yo'l topa olganidagina, haqiqiy tarbiya va ta'lim samarasi yuzaga chiqadi. Bu g'oyalar hozirgi





**JOURNAL OF  
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

zamonaviy pedagogik yondashuvlar - shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim, inkluziv yondashuv va emotsional intellekt kabi konsepsiyalar bilan hamohangdir.

Ushinskiy pedagogik sistemasining negizi ta‘lim va o‘qitish tizimida demokratlashtirishni talab qilishdan iborat bo‘lgan. U birinchi bo‘lib, pedagogika tarbiyaning ilmiy nazariyasi, degan fikrni ilgari surgan va buni isbot etgan. Ushinskiy pedagogika nazariyasining asosini tarbiyaning xalqchillik g‘oyasi – tarixiy jarayonda mehnatkash xalqning yaratuvchilik kuchini e‘tirof etish tashkil qilgan. Ushinskiy pedagogikani keng ma‘noda bir fan, tor ma‘noda tarbiya san‘ati deb hisoblagan. Ushinskiy tarbiyani shaxsni aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy shakllantirishga qaratilgan yaxlit jarayon deb bilgan va bunda axloqiy tarbiya asosiy o‘rinni egallashi lozim deb hisoblagan. Maktabda o‘quvchilar mehnatiga ta‘lim va tarbiyaning muhim omillaridan biri sifatida qaragan. Ushinskiy ning axloq va axloqiy tarbiya to‘g‘risidagi qarashlarida xalqchillik g‘oyalari aks etgan. Ushinskiy yaxlit didaktik tizimni ishlab chiqqan. Unda ta‘lim mazmunini tanlash hamda uni bolalarning yosh xususiyatlariga moslashtirish masalalari ochib berilgan. Ushinskiy o‘qitishning psixofizik tabiatini tadqiq etdi, diqqat, qiziqish, xotira, xayol, hissiyot, tafakkur kabi psixologik mexanizmlarni tahlil qildi. O‘zining „Inson tarbiya predmeti sifatida“ degan asarida psixologiyani tajriba ma‘lumotlariga asoslanib tuzishga harakat qildi. U bolalar psixologiyasi bilan ta‘limtarbiya psixologiyasini ishlab chiqqan. Maktabda ona tili darsiga katta ahamiyat berdi. Uning „Bolalar dunyosi va xrestomatiya“, (1861), „Ona tili“ (1864) kabi darsliklari mazmunining boyligi, tili va metodikasi jihatdan o‘z davrining eng namunali o‘quv kitoblaridir

Ushinskiy pedagogika nazariyasi anatomiya, fiziologiya, psixologiya, falsafa, tarix, va boshqa fanlar qonunlarida foydalanishga asoslangan bo‘lishi lozim, deb ko‘rsatdi. YAni fanlararo bog‘liqlik pedagogik tarbiya qonunlarini ochib berishi imkoniyatini oshiradi. U ta‘lim-tarbiyaning umuminsoniylik, xalqchillik prinsipini ilmiy asoslaydi. “Ijtimoiy tarbiya xalq ruhi haqida” (1857) sarlavhali maqolasida: “Hamma uchun umumiy bo‘lgan





**JOURNAL OF  
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

birgina tug‘ma odat borki, hamisha tarbiya shunga tayanishi mumkin: u ham bo‘lsa, xalqning o‘zi yaratgan va xalqchilik asosida qurilgan va biz uni tarbiyaning xalqchiligi... deb ataydigan narsadir, bu narsa shunday tarbiyaviy kuchga egadirki, bunday kuch abstrakt g‘oyalarga asoslangan yoki boshqa xalqlardan olingan eng yaxshi tizimda ham yo‘qdir. .. Har qanday mavjud tarixiy xalq xudo yer yuzida yaratgan eng ajoyib mavjudoddir va tarbiyani ana shu bosh hamda sof manbadangina olish kerak bo‘ladi.”Ushinskiyning fikricha, axloqiy tarbiyaning vositalari quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak:

1. Ta’lim darslik vositasida kitoblari juda ajoyibdir, bu kitoblarda nutqni o‘stirishni, bilimni umumlashtirish bilan o‘quvchilarning axloqiy tarbiyalarini juda ustalik bilan birlashtiradi;
2. O‘qituvchining shaxsan namuna bo‘lishi (Ushinskiyning obrazli ifodalashicha, “bu narsa yosh qalb uchun quyoshning barakali nuridirki, uni hech bir narsa bilan almashtirib bo‘lmaydi”);
3. YEtiqod, bunga u juda katta e’tibor berish lozim;
4. O‘quvchilarga mohirlik bila munosabatda bo‘lish (pedagogik odob).
5. Ogohlantirish choralari;
6. Rag‘batlantirish va jazolash. (Bolaning faolligi mehnat va uning tarbiyaviy ahamiyati) kabilar.

Ushinskiy, bolaning faolligi uning tarbiyasi va ta’limda eng muhim shartlarning biri ekanligini takidlaydi. U xoh aqliy tarbiyada bo‘lsin, xoh ta’limda bo‘lsin mashqning ahamiyati muhimligi. Bolalardagi ijobiy etiqolardan foydalanib, ularni faoliyatini rejim asosida tashkil etishni tavsiya etadi.

Ushinskiyning bola har tomonlama kamolotida mehnatning ahamiyati haqida: “Agar tarbiya kishini baxtli qilmoqchi bo‘lsa, uni baxt uchun tarbiyalamasligi kerak, balki hayotdagi mehnat uchun tayyorlashi lozim” deb yozadi. Tarbiya maqsadi kishida mehnatga muhabbat va odatni o‘stirishga qaratilsagina samarali bo‘lishi mumkinligini





**JOURNAL OF  
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

o‘qtiradi. Ushinskiyning didaktika sohasidagi qarashlari ta’limning bolalarning yosh xususiyatini bosqichlarini hisobga olishni tavsiya etdi va amaliy asoslaydi.

Shuningdek, ta’limning izchilligi, uzluksizligi: ta’limning hayot bilan, faoliyat bilan bog‘lab olib borish prinsiplarni ilmiy asoslaydi. O‘quv yili bosqichlar asosida tashkil etishni takomillashtirish.

Ushinskiy maktabda o‘quv mashg‘ulotlarini muavffaqiyatli yo‘lga qo‘yishning zarur shartlari, sinf-dars sevimasining o‘ziga xos xususiyati o‘quvchilar sostavi doimiy bo‘lgan, maktabning asosiy bo‘g‘inini tashkil etuvchi sinf, sinfdagi mashg‘ulotlarni qat’iy jadval asosida olib borilishi, o‘qituvchining hamma o‘quvilar bilan yalpi (frontal) mashg‘ulot olib borishi va bunga har bir o‘quvchi bilan individual mashg‘ulot ham o‘tkazishi, mahoratiga bog‘liq deb ko‘rsatadi.

Ushinskiy “Rus tilini dastlabki o‘qitish” (1864) sarlavhali ajoyib maqolasida bir qancha metodik ko‘rsatmalar berdi. Uning fikricha, shu o‘qitishning uchta vazifasi bor:

Bolaning nutqini o‘stirish,

Bolalarni rus tilining xazinalirdan ongli suratda foydalanishga o‘rgatish

Tilning mantiqini (grammatikasini) o‘zlashtirish.

Bu uch vazifa bir vaqtda, birgalikda bajariladi. Ushinskiy nutqni o‘stirish uchun muntazam suratda dastlab og‘zaki, so‘ngra yozma mashqlar o‘tkazishni tavsiya etadi. Mashqlar asta-sekin murakkablasha borishi didaktik qoidalarni ifodalaydi. O‘qituvchining nutqi katta ahamiyatga ega ekanligi unda xalq poeziyasini, badiiy adabiyotning eng yaxshi namunalaridan samarali foydalanish.

Ushinskiy boshlang‘ich ta’lim uchun “Ona tili” darsligi alifbedan boshlangan bolalarning fikrini o‘stirish va ularni o‘rab olgan hayotdan olingan tasavvurlarini kengaytirishida ona tilining imkoniyatlari ishlab chiqilgan: “Detskiy mir” esa yuqoriroq sinflarning (taxminan uchinchi va to‘rtinchi sinf) o‘quvchilariga mo‘ljallangan, bo‘lib asosiy e’tibor bolalarga geografiya va tabiatdan boshlang‘ich ta’limda o‘rganilishi mazmuni ifodalangan.





Bu ikkala darslik mazmuniing boyligi, tili va metodikasi jihatidan mukammalligi tufayli qariyb 150 marta nashr qilindi).

Ushinskiy darslik «yaxshi ta'limning poydevori» dir deb hisoblar edi Ushinskiy o'qituvchilarning roliga yuksak baho berar edi. U haqli suratda, pedagogikaning o'quvchilarga tasiri shunday tarbiyaviy kuchga egadirki, buni hech qaday ustav va programma bilan, o'quv yurtini har qanday tashkil etishi bilan almashtirib bo'lmaydi, deb hisoblanar edi. U “tarbiya ishida murabbiyning shaxsi eng asosiy narsa” , - deb yozgan edi. Ushinskiy “O'qituvchilar seminariyasining proyeksi” sarlavhali maqolasida (1861) boshlang'ich maktablar uchun o'qituvchilar tayyorlash planini mufassal ishlab chiqdi. Bu proyektga muvofiq, o'qituvchilar seminariyalari yirik shaharlar emas, balki kichik shaharlarda, hatto qishloqlarda ochilishi kerak, chunki katta shaharlarning yomon odatlari tarbiyalanuvchiga tasir qilmasligi, o'qituvchilar esa boshqa o'quv yurtlarida qo'shimcha dars berishga qiziqmasdan, butun vaqtini o'qituvchilar seminariyasida ishlashga berishlari kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirzakarimova M. EFFECTIVENESS OF STUDENTS' ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES
2. Mirzakarimova M. M. The Necessity to Develop Students' Entrepreneurial Skills in English Classes //Telematique. - 2022. - C. 7128-7131.
3. Мирзакаримова М. М. ESSENTIAL COMPOSITION OF ENTREPRENEURSHIP FUNCTIONAL LITERACY //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL “INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY. - 2020. - Т. 1. - №. 1. - С. 63-65.
4. Мирзакаримова М. М. Замонавий шароитларда умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими //Science and Education. - 2020. - Т. 1. - №. 4. - С. 216-222.





**JOURNAL OF  
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

5. Madaminjonovna M. M. Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies //International Journal of Human Computing Studies. - 2023. - Т. 5. - №. 3. - С. 15-17.
6. Мирзакаримова М. М. Умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими //Science and Education. - 2020. - Т. 1. - №. 4. - С. 97- 103.
7. Mirzakarimova M. CLIL TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O'QUVCHILARNING TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATION METOD VA VOSITALAR //Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. - 2023. - №. 6. - С. 410-415. "Science and Education" Scientific Journal / www.openscience.uz May 2025 / Volume 6 Issue 5 ISSN 2181-0842 / Impact Factor 4.526 314
8. МИРЗАКАРИМОВА М. М. ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ТАДБИРКОРЛИККА ЙЎНАЛТИРИБ ЎҚИТИШНИНГ ДИДАКТИК АСОСЛАРИ //Novateur Publications. - 2022. - №. 1. - С. 1-128.
9. Mirzakarimova M. M. et al. Scientific and pedagogical activity of Imam alBukhari //Science and Education. - 2023. - Т. 4. - №. 12. - С. 321-324.
10. Mirzakarimova M. M., Uzoqjonova M. D. Q. O'zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash muammolarini o'rganish va bartaraf qilish //Science and Education. - 2023. - Т. 4. - №. 11. - С. 78-83.

